O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 4 - oktabr 319-11-0-Q/23 Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 4-sentyabrdagi PQ-292-sonli qarori to‘g‘risida

O‘tgan ikki yilda o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlari natijasida tadbirkorlik sohasida ko‘plab tizimli muammolar hal etildi, shu jumladan biznes yuritishni soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay ishlar amalga oshirildi.

Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish tizimi va infratuzilma yaratish hamda mulk huquqini ta’minlash bo‘yicha izchil mikro, kichik o‘rta va yirik toifalarga, tuman va shaharlarni 5 ta toifaga ajratish orqali tadbirkorlikni manzilli qo‘llab-quvvatlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Joriy yil 18-avgust kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida tadbirkorlardan kelib tushgan 6 mingta murojaatda ko‘tarilgan tizimli muammolarning yechimiga qaratilgan taklif va tashabbuslarni amalga oshirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentyabrdagi PQ-292-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida:

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023 yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-292-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha "yo‘l xaritasi"

(keyingi urinlarda-"Yo‘l xaritasi") 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

"Qishloq qurilish bank" aksiyadorlik tijorat banki negizida "Biznesni rivojlantirish banki" aksiyadorlik tijorat banki *(keyingi o‘rinlarda - Biznesni rivojlantirish banki)* tashkil etilganligi va uning faoliyati ustuvor ravishda kichik biznes subyektlarining loyihalarini moliyalashtirish va ularga kompleks xizmatlar ko‘rsatishga yo‘naltirilganligi;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Savdo-sanoat palatasining sanoat sohalarida "140 ta ilgor sanoat korxonasi" dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi;

b) Sanoatni rivojlantirish jamg‘apmaci hisobidan:

"140 ta ilg‘op sanoat korxonasi" dasturiga kiritilgan tadbirkorlik subyektlarining loyihalarini moliyalashtirish uchun xorijiy valyutada yillik 4 foiz, milliy valyutada yillik 10 foiz stavkada 10 yil muddatgacha kredit mablag‘lari ajratilishi;

yangi turdagi yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish va mavjud quvvatlarni kengaytirishga qaratilgan sanoat loyihalariga:

xorijiy valyutada yillik 5 foiz, milliy valyutada yillik 10 foiz stavkada 10 yilgacha muddatga kredit mablag‘lari;

xorijiy valyutada yillik 4 foiz, milliy valyutada yillik 10 foiz stavkada 1 yilgacha muddatga aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun kredit mablag‘lari ajratilashi;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ikki oy muddatda "140 ta ilg‘op sanoat korxonasi" dasturini amalga oshirish jarayonlarini raqamlashtirishni nazarda tutuvchi, shu jumladan ushbu dasturga kiritilgan sanoat loyihalarini tadbirkorlik subyektlariga ochiq tanlov asosida taklif qilish imkoniyatiga ega elektron platformani ishga tushirishi;

qo‘shilgan qiymat solig‘ining salbiy summasi o‘rnini qoplashda (qaytarishda) soliq o‘zilishi (tax gap) koeffitsiyentini qo‘llash amaliyoti taqiqlanishi;

qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha maxsus ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini to‘xtatib turish tartibi bekor qilinishi *(bundan amalga oshirilayotgan bitmlar (operatsiyalar) xarid qilinayotgan va*

realizatsiya qilinayotgan tovarlar (xizmatlar) nomenklaturasiga nomuvofiq bo‘lgan holatlar mustasno);

foyda solig‘i bo‘yicha har oy bo‘nak to‘lovlarini to‘lashi lozim bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari daromadining chegaraviy miqdori 5 milliard so‘mdan 10 milliard so‘mga oshirilishi;

v) 2024 yil 1 yanvardan boshlab:

iqtisodiy sudlar tomonidan soliq organlari ishtirokida ko‘rilayotgan ishlar ma’muriy sudlar yurisdiksiyasiga o‘tkazilishi;

soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati besh yildan uch yilga tushirilishi;

Kameral soliq tekshiruvini o‘tkazishda quyidagilar tashkillanishi; *(bundan qo‘shilgan qiymat colig‘i summasi o‘rnini qoplash (qaytarish)da o‘tkaziladigan kameral soliq tekshiruvlari mustasno)*:

soliq to‘lovchining hududiga kirish;

soliq to‘lovchining hududini va binolarini ko‘zdan kechirish;

soliq to‘lovchidan hujjatlarni talab qilib olish va uni chaqirtirish;

soliq to‘lovchining hujjatlari va buyumlarini olib quyish.

g. 2024 yil 1 yanvardan boshlab:

aholi va tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar bo‘yicha qarzdorlikni undirish bo‘yicha sudning hal qiluv qarori chiqarilganda, mazkur kreditlar bo‘yicha foizlar va neustoyka xisoblanishi to‘xtatilishi;

to‘lov mikdori kredit majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo‘lmaganda, mablag‘larni, birinchi navbatda, mutanosib ravishda muddati o‘tgan asosiy qarz va foiz qarzdorliklarini, ikkinchi navbatda joriy to‘lov uchun hisoblangan foizlar va asosiy qarzni, keyingi navbatlarda neustoyka va ijro harajatlarini qoplashga yo‘naltirish tartibi o‘rnatilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jamoatchilik kengashining *(keyingi o‘rinlarda - Jamoatchilik kengashi)* quyidagi:

d) Jamoatchilik kengashining tarkibini 1-ilovaga muvofiq:

Jamoatchilik kengashining yig‘ilishlarini oyiga kamida bir marotaba o‘tkazib borilishi;

tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini Adliya vazirligida huquqiy ekspertizadan o‘tkazishdan oldin Jamoatchilik kengashi muhokamasidan o‘tkazish takliflari maqullanganligi;

f) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-avgustdagi "O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022-yildagi "ochiq muloqoti"da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-364-son qaroriga 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha “Yo’l haritasi” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat hokimining o’rinbosarlari X.Sirojitdinov, I.Ergashevga "Yo‘l haritasi"da nazarda tutilgan tadbirlarni to‘liq hajmda amalga oshirish bo‘yicha boshqarma va tashkilotlar, shahar va tuman hokimliklari faoliyatini samarali tashkil etish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining o‘z vaqtida va puxta ishlab chiqilishida ishtirokini ta’minlash yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklatilsin.

3. Viloyat hokimini o’rinbosari I.Ergashev, viloyat hokimligi matbuot kotibi (Djumaboyev) bilan birgalikda ikki hafta muddatda tadbirkorlar bilan ochiq muloqot doirasida bildirilgan tashabbus va takliflarni amalga oshirish natijasida tadbirkorlarning faoliyatida yuz bergan ijobiy o‘zgarishlarni yoritib borish yuzasidan media-reja tasdiqlasin.

4. Viloyat hokimligi matbuot kotibi D.Djumaboyev, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi (Xalimbekov), Farg’ona viloyat teleradiokompaniyasi (Obidjonov) bilan birgalikda tasdiqlangan media-reja asosida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalarini ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borsin.

5. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov bir hafta muddatda Farg‘ona shahridagi “Eko shahar” hududida Kichik biznesga ko‘maklashish markazini tashkil etsin va markaz rahbarligiga tajribali nomzod tayinlash bo‘yicha viloyat hokimiga taklif kiritsin.

6. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov, Soliq boshqarmasi

(Mamatxonov), Markaziy bank boshqarmasi (Dusaliyev), Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Ro’zaliyev) oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ygan tadbirkorlik subyektlari loyihalarini kengaytirish va yangi kichik biznes loyihalarini ishga tushirilishi;

biznesni rivojlantirish banki tomonidan vakolatli banklar bilan birgalikda kichik biznes loyihalari uchun qulay shartlarda 7 yilgacha bo‘lgan muddatlarda kreditlar ajratilishi;

ijobiy kredit va soliq tarixiga ega hamda kichik biznesga ko‘maklashish markazlari yordamida loyihalarini amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini kengaytirish uchun kreditlar ajratishda ularga garov talabi 50 foizga kamaytirilishi chorasini ko’rsin.

7.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 4-oktabrdagi
319-11-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha

“YO‘L XARITASI”

T/r	Chora-tadbirlar va tashabbuslar	Mazmuni	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
I. Kichik biznesga yangi imkoniyatlar yaratish					
II. O‘rta biznesni barqaror iqtisodiy o‘sish garoviga aylantirish					
1.	**Kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini kengaytirish**	Kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish obyektini ishga tushirib, investitsiya majburiyatlarini bajargan tadbirkorlik subyektlariga **yer uchastkalarini xususiylashtirish**ga ruxsat berish.	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi	2023 yil dekabr	Viloyat hokimini o’rinbosari I.Ergashev, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo‘yicha yagona direksiyasi
V. Sodda soliq ma’muriyatchiligi va byurokratiyadan xoli qulay muhit yaratish					

2.	**Qo‘shilgan qiymat solig‘i ma’muriyatchiligini soddalashtirish**	**1.** Qo‘shilgan qiymat solig‘ining salbiy summasi o‘rnini qoplashda (qaytarishda) soliq uzilishi (tax gap) koeffitsiyentini qo‘llash amaliyotini bekor qilish.	Amaliy chora-tadbirlar	2023 yil sentyabr	Viloyat hokimining o’rinbosarlari X.Sirojitdinov, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Soliq boshqarmasi, Bojxona boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi boshqarmasi
		2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha maxsus ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini to‘xtatib turish tartibini bekor qilish (bundan amalga oshirilayotgan bitimlar (operatsiyalar) xarid qilinayotgan va realizatsiya qilinayotgan tovarlar (xizmatlar) nomenklaturasiga nomuvofiq bo‘lgan holatlar mustasno). Bunda, nomuvofiq holatlar 30 kun muddatda o‘z tasdig‘ini topmaganda guvohnomaning amal qilishi faollashtiriladi.	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi	2023 yil sentyabr	

3.	**Kameral soliq tekshiruvini o‘tkazish tartibini soddalashtirish**	**1.** Kameral soliq tekshiruvi soliq organlarida mavjud ma’lumotlar asosida tadbirkorlik subyektining ishtirokisiz soliq organining o‘zida o‘tkazilishini belgilash (bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qaytarishda o‘tkaziladigan kameral soliq tekshiruvlari mustasno). Bunda, soliq organlarining quyidagi huquqlari bekor qilinadi: soliq to‘lovchining hududiga kirish; soliq to‘lovchining hududini va binolarini ko‘zdan kechirish; soliq to‘lovchidan hujjatlarni talab qilib olish va uni chaqirtirish; soliq to‘lovchining hujjatlari va buyumlarini olib qo‘yish.	Qonun loyihasi, Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi	2023 yil oktyabr	Viloyat hokimining o’rinbosarlari X.Sirojitdinov, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Soliq boshqarmasi, Bojxona boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi boshqarmasi
		2. Kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha tadbirkorlik subyektlariga qo‘shimcha hisoblangan soliqlar summalarini olti oy mobaynida teng ulushlarda bo‘lib-bo‘lib to‘lash tartibini joriy etish.	Qonun loyihasi	2023 yil dekabr	

4.	**“Soliqchi — ko‘makchi” tizimini takomillashtirish**	**1.** Soliq organlari tomonidan mahalla darajasida ishlash tizimini joriy qilish. **2. “Onlayn mahalla”** elektron platformasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan soliq organlarining faoliyatini baholash imkonini yaratish. Bunda, tadbirkorlik subyektlari tomonidan berilgan bahoni soliq organlari faoliyatining muhim samaradorlik ko‘rsatkichlaridan biri etib belgilash.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi	2023 yil sentyabr	Viloyat hokimining o’rinbosarlari X.Sirojitdinov, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Soliq boshqarmasi, Bojxona boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi boshqarmasi
5.	**Ishlab chiqarishni yanada qo‘llab-quvvatlash**	**1.** Chetdan olib kelinadigan tabiiy olmos, zumrad, sapfir kabi qimmatbaho toshlarni **qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilish**. **2.** Qadoqlash va etiketkalash mahsulotlariga bojxona bojini **nol** stavkada belgilash. **3.** Zargarlik sanoati uchun mutaxassis sifatida jalb qilingan chet el fuqarolariga mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnomani berishda undiriladigan yig‘im miqdorini kamaytirish.	Qonun loyihasi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi	2023 yil oktyabr 2023 yil noyabr	Viloyat hokimini o’rinbosari I.Ergashev, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Soliq boshqarmasi, Bojxona boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi boshqarmasi

6.	**Sanoat zonalarida ishlab chiqarishni rivojlantirish**	Sanoat zonalarida yer maydonlari va bino-inshootlarni ijaraga berishda to‘lovlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash davrini amaldagi **12 oydan 24 oygacha uzaytirish.**	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi	2023 yil oktyabr	Viloyat hokimini o’rinbosari I.Ergashev, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi Kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo‘yicha yagona direksiyasi